

**TURIZM XIZMATLARI SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ
TAJRIBASIDAN MILLIY IQTISODIYOTDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI**

Raxmatov Adham Itolmasovich

Qarshi axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti dotsenti,

Ismoilov Dilshod Normumin o'g'li

Qarshi axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti magistranti

Annotatsiya: *Hozirgi vaqtda turizm siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagi turli to'siqlarga qaramay, doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotning turizm sektorini boshqarishning murakkabligi ham turistik xizmatlarning xilma-xilligi, ham uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi sabablarning xilma-xilligi bilan bog'liq. Maqolada muallif Qashqadaryo viloyatida turizmni samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini bayon etgan.*

Kalit so'zlar: *turizm, investitsiya, innovatsiya, iqtisod, turistik korxonalar, ekologik turizm, samaradorlik, foyda, elektron savdo, tashkiliy, iqtisodiy, mexanizm.*

Аннотация : *Несмотря на различные препятствия, он постоянно развивается. Сложность управления туристическим сектором экономики связана как с разнообразием туристических услуг, так и с разнообразием факторов, влияющих на его развитие. В статье автор изложил организационно-экономический механизм эффективного развития туризма в Кашкадарьинской области.*

Ключевые слова: *туризм, инвестиции, инновации, экономика, туристическое предприятие, экологический туризм, эффективность, прибыль, электронная торговля, организационный, экономический, механизм.*

Abstract: *At present tourism continues to develop steadily despite various political, economic, and social obstacles. The complexity of managing the tourism sector of the economy is associated both with the diversity of tourism services and with the variety of factors influencing its development. In the article, the author describes the organizational and economic mechanism for the effective development of tourism in the Kashkadarya region.*

Keywords: *tourism, investment, innovation, economy, tourism enterprise, ecotourism, efficiency, profit, e-commerce, organizational, economic, mechanism.*

Kirish. Turizm xizmatlari sohasini tadqiqot nuqtai-nazaridan o'rganish muhim masalardan hisoblanadi va bu borada bir qancha xorijiy mamlakatlarda bu borada muvaffaqiyatli ishlanmalar amalga oshirilgan. Misol uchun, Gosling va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot turistlarni "Yevropaga tashrif buyurishga undashda barqarorlikning rolini"⁷ ko'rib chiqdi.

⁷ Gosling, S., Scott, D., & Hall, C. M. (2020). Tourism and water: Interactions, impacts and challenges. Channel View Publications.

O'zbekistonda ushbu amaliy tajribalardan potensial foydalanish nuqtai nazaridan mamlakatda madaniy meros obyektlarini saqlash kabi barqaror turizm amaliyoti joriy etilgan. Biroq, raqamli marketing strategiyalaridan foydalanishda, xususan, unchalik tanikli bo'lmagan yo'nalishlarni ilgari surishda takomillashtirish zarurati mavjud. Turistik-motivlashtirish resurslaridan foydalanish ko'proq turistlarni jalb qilishi mumkin.

Mahalliy olimlardan, I.Tuxliyev, M.Q.Pardayev, A.Eshtayev, B.Turayev, B.Safarov, N.E.Ibodullayev, X.Turdibekov, N.Sh.Mansurova va X.Raximovlarning ilmiy ishlari o'rganilganda, turizm xizmatlari industriyasida xorij tajribasining turli jihatlarini o'rganilgan bo'lib, aynan mehmonxona xizmatlarining tashkiliy-qtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi xorijiy davlatlarda mavjud tajriba yetarli o'rganilmagan. Bu esa dissertatsiya ishini yozishda bir qator vazifalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, Respublikamiz olimlari tomonidan chop etilgan ilmiy ishlaridan L.Yo'ldosheva⁸: o'zlarining ilmiy izlanishlarida turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning xorij tajribasi ochib berishga harakat qilgan bo'lib, bu tadqiqotlarda mehmonxona xizmatlarining tashkiliy-qtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jihatlarini batafsil ko'rib chiqilmagan.

Shu bilan birga, Sh.Sayfutdinov o'zining ilmiy maqolasida "turizm sohasi rivojlangan xorij mamlakatlarida turizmni boshqarish strukturasi va davlat muassasalarining turizm sohasidagi faoliyati tahlillari, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Fransiya, Amerika Qo'shma Shtatlari kabi mamlakatlarda turizm sohasini boshqaruvchi yetakchi tashkilotlari faoliyatlarini"⁹ tahlil qilinish, xorij tajribasi asosida respublikamizda turizmni rivojlantirish va boshqarishning ustuvor yo'nalishlarini ochib berishga harakat qilgan. Biroq dissertatsiyada turizm xizmatlari sohasining tashkiliy-qtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish ko'rib chiqilmagan.

Madaniy va tarixiy meros turistlarning qaror qabul qilish jarayonlariga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) ham ma'lum qilishicha, madaniy turizm dunyo bo'ylab barcha turizmning qariyb 40 %ini tashkil qiladi"¹⁰. Bundan tashqari, meros turizmi destinatsiyalar uchun katta iqtisodiy foyda keltirishi aniqlandi. Milliy tarixni muhofaza qilish jamg'armasi tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, meros turizmi birgina Qo'shma Shtatlarda har yili 12,5 milliard dollar sarflaydi.

"Turistlarning qaror qabul qilish jarayonlariga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil mehmonxona da va unga yaqin hududlarda realizatsiya qilinadigan oziq-ovqat va ichimliklardir. Butunjahon oziq-ovqat sayohatlari assosiasiyasi"¹¹ tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada respondentlarning 75% oziq-ovqat va ichimliklar takliflari tufayli maqsadni tanlaganliklarini aytishdi. Bundan tashqari, oziq-ovqat va ichimliklar tajribasi sayyohlarning

⁸ <https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-sohasini-davlat-tomonidan-tartibga-solishning-xorij-tajribasi> 14.02.2024 й.

⁹ Ш.Сайфутдинов, Туризм ривожланишини бошқаришда хориж тажрибаси. "Сервис" илмий-амалий журнал. 2019 й. 3-сон.

¹⁰ Переяшкин А.В. <http://elibrary.ru/item.asp?id=37639793>

¹¹ Философия туризма (зачем и почему путешествуют люди?). <http://elibrary.ru/item.asp?id=37639793>

sayohatlaridan umumiy qoniqishlariga sezilarli hissa qo'shishi aniqlandi. Yangi Zelandiyadagi Otago universiteti tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, oziq-ovqat va ichimliklar tajribasi sayyohlar orasida umumiy qoniqishning eng kuchli prognozi hisoblanadi.

Turizm oqimlarining statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, katta yoshdagi sayohatchilar soni doimiy ravishda o'smoqda va 55 yoshdan o'tgan kishilar xalqaro turizmga muhim rol o'ynay boshladilar. Sayyohlar bu toifasining asosiy qismi keksa aholisi ko'p bo'lgan AQSh, Kanada, Yaponiya kabi bir qancha mamlakatlarga to'g'ri keladi. Umr ko'rishning o'rtacha darajasi 1985-yildan 1995-yilgacha Yaponiyada 1-2 yilga, Yevropa va AQShda 1 yilga ko'paydi. Odamlar uzoq yashabgina qolmasdan, balki qarigan chog'ida ham yuqori jismoniy faolligini saqlab qolmoqdalar. Katta yoshdagi kishilar ancha sog'lom bo'la boshladilar. Bu iqtisodiy jihatdan ta'minlanishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, sayohat qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo qiladi. 55 yoshdan 59 yoshgacha bo'lgan kishilar yiliga o'z mamlakati doirasida 2-4 marta, chet ellarga 0,8 marta safarga chiqadilar. 2005-yilgacha bo'lgan ma'lumotga ko'ra, Buyuk Britaniya, AQSh va Yaponiyada mamlakat hududiga 55-59 yoshgacha bo'lgan 18.8 mln. aholi chet elga esa taxminan 6.3 mln. kishi sayohat qilgan. Shunisi xarakterliki, oxirgi paytlarda oilaviy turizm ham rivojlanmoqda. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, oila bilan bog'liq turizmni ikki guruhga, ya'ni, birinchisi bolalar bilan birga va ikkinchisi, bolalarsiz turizmga bo'lish mumkin. Kasb belgisi bo'yicha turizmga bo'lgan talablardan kelib chiqib, odamlarning biron muassasada yoki iqtisodiyotning muayyan sohasida ishlaydigan muayyan kasbga egaligi bilan birlashgan guruhlarini keltirish mumkin¹².

Bizningcha, mamlakatda turizm xizmatlari sohasini rivojlantirish modellari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'z hududi uchun mukammal va mos ishlab chiqilgan. Biroq, bular ichida Yevropa modelini O'zbekiston sharoitida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun birdek ta'sir ko'rsatuvchi va natijadorligi eng yuqori bo'lgan model sifatida qarash mumkin. Sababi, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning olib borayotgan siyosati ham aynan shu modelning mazmuniga mos keladi. Ya'ni bugungi kunda davlat siyosati turizm sohasini rivojlantirish, turizm infratuzilmasini rivojlantirishga jumladan mehmonxona xizmatlarini modernizatsiya qilish paytida talabning mavjud darajasini saqlab qolishga va yosh kadrlarni ish bilan ta'minlayotgan turistik korxonalariga imtiyozlar berib, qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

1 -jadval

UN Turizm ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil mamlakatga kelgan(million/%) sayyohlar tashrifi jihatdan mamlakatlar:¹³

¹² Дружинина, В.В. Обеспечение сбалансированности местного рынка труда: зарубежный опыт / В.В. Дружинина // Научный Вестник Херсонского государственного университета. – 2014. – № 6. – С. 124–128.

¹³ Manba: unwto.org ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi <https://www.unwto.org/tourism-data/global-and-regional-tourism-performance> 12.02.2024 y.

№	Davlat nomlari	Mamlakatga kelganlar (million)	% ulush	Daromadlar (milliard AQSH dollari)	% ulush	Har bir tashrifdagi tushgan tushumlar (AQSh dollari)	Eksportdagi sifatida turizm %
1	Fransiya	79,4	8%	59,7	5%	752	7,20%
2	Ispaniya	71,66	7%	72,9	7%	1 017	12,10%
3	Qo'shma Shtatlar	50,87	5%	136,9	13%	2 691	5,50%
4	Turkiya	50,45	5%	41,4	4%	820	16,90%
5	Italiya	49,81	5%	46,6	4%	936	6,10%
6	Meksika	38,33	4%	28	3%	731	4,60%
7	Birlashgan Qirollik	30,74	3%	67,6	6%	2 199	6,60%
8	Germaniya	28,46	3%	31,5	3%	1 108	1,50%
9	Gretsiya	27,84	3%	18,6	2%	669	18,90%
33	O'zbekiston	5,23	1%	1,4	0%	275	9,30%

2024-yil ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston xalqaro ryetingda 33-o'rinni egallagan (1.2-jadval).

Bizning fikrimizcha, Ispaniyada turizmning xususiyatlarini o'rganish juda dolzarbdir. Mamlakat uzoq vaqtdan beri kelgan sayyohlar soni va turizm faoliyatidan olinadigan daromadlar bo'yicha dunyoning yetakchi besh davlati qatoridan joy olgan. Uning tajribasi O'zbekiston Respublikasi uchun foydali bo'lishi mumkin.

Ispaniya muhim geosiyosiy o'rin tutadi, xususan, u ko'plab xalqaro tashkilotlarning a'zosi: BMT, Yevropa Ittifoqi. Sanoat ishlab chiqarish bo'yicha dunyoning 10 ta davlati qatoriga kiradigan agrar-industriyal mamlakat. Turizm Ispaniya iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

UN Tourism ma'lumotlariga ko'ra, sayyohlar soni bo'yicha Ispaniya 3- o'rinni egallagan. Shunday qilib, "Ispaniyada turizm YaIMning 2020-yi 15,4 % ni tashkil qilgan va 2022-yilda mamlakatga deyarli 71,66 million xalqaro turistlar tashrif buyurgan va ularning 2022-yildagi umumiy xarajatlari 72,9 milliard dollarni tashkil etgan. 2022-yilda u kelganlar soni va turizmdan tushgan daromadlar bo'yicha dunyoda ikkinchi yirik turistik yo'nalish bo'ldi".¹⁴

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, sayyohlarning Ispaniyaga tashrif buyurishida muhim omil bo'lib rivojlangan transport infratuzilmasi hisoblanadi.

¹⁴ <https://www.unwto.org/ru/news/unwto-underscores-tourisms-importance-for-covid-19-recovery-inmeeting-with-the-king-of-spain>

Ispaniya, shuningdek, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish markazi sifatida ishlaydi, buning natijasida turizm sohasiga qo'shimcha mablag'lar jalb qilinadi. Ispaniyada turizm sohasining rivojlanishiga ispan tilini ona tili sifatida gapiradiganlar soni bo'yicha sayyorada ikkinchi eng keng tarqalgan til ekanligi yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ispaniya davlatining mos iqlim sharoitlari va madaniy-tarixiy turizm sohasidagi faoliyati O'zbekiston iqlim sharoitlari va mavjud madaniy-tarixiy turizm sohasidagi imkoniyatlar mos kelishi Ispaniya davlatining turistlarni motivlashtirishdagi tajribasini qo'llash asoslidir.

Umuman olganda, turizmni rivojlantirishda davlat boshqaruv tizimining o'rni beqiyos. Turli mamlakatlarda turizmning rivojlanish darajasi bevosita turizm sohasidagi davlat siyosatiga bog'liq. Shu munosabat bilan turizm xizmatlarini ilgari surish, turistlarni motivlashtirish sohasida xalqaro menejment tajribasini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. "Hozirgi vaqtda turizm sohasini davlat boshqaruvining uchta asosiy modeli mavjud"¹⁵

Birinchi modelda mamlakatda turizmni davlat tomonidan tartibga soluvchi markaziy organ mavjud emas deb taxmin qilinadi. Ushbu model turizmni mahalliy miqyosda, shu jumladan, turli uyushmalar tomonidan rivojlantirish masalalarini hal qilishni nazarda tutadi. Turizm tarmog'ini boshqarishning ushbu modeli Qo'shma Shtatlarda rivojlangan.

Ikkinchi model turizm masalalari bilan katta vakolatlar va moliyaviy resurslarga ega bo'lgan tarmoq vazirliklari tomonidan shug'ullanishiga asoslanadi. Ushbu model Turkiya, Bolgariya, Misr va Malayziya kabi mamlakatlarda qo'llaniladi.

Uchinchi model turizmni rivojlantirish va davlat tomonidan tartibga solish funksiyalari ko'p tarmoqli vazirlikka yuklanishini nazarda tutadi. Ushbu model Ispaniya, Gollandiya va Buyuk Britaniya kabi Yevropa mamlakatlari uchun xos.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2022- yildan 2023- yilgacha bo'lgan davrda barcha mamlakatlarga kelgan turistlar sonining ijobiy o'sish tendentsiyasi kuzatilgan. Fransiya, AQSh, Xitoy va Ispaniya kelish bo'yicha doimiy yetakchi bo'lib qolmoqda. Tahlil qilinayotgan davrda Turkiyada sayyohlar soni 4.6% ga, Malayziyada esa 30.7% ga oshgan. O'zbekistonda kelganlar soni 2.7% ga oshdi (1.8-jadval).

¹⁵ Кусков А.С., Джаладян Ю.А. Основы туризма. М.: КноРус,2013. 400 с.

2-jadval.

Turistlarga yuqori darajadagi mehmonxona xizmatlari ko'rsatuvchi etakchi mamlakatlar kelishi bo'yicha eng mashhur mamlakatlar¹⁶

№	Mamlakatlar	Mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlarning umumiy soni (million)		2024- yil 2023- yilga nisbati % ga oshishi
		2024-yil	2023-yil	
1	Fransiya	100,00	93,20	7.3
2	AQSh	66,48	50,87	28.6
3	XXR	90.0		49.9
4	Ispaniya	85,17	71,66	9.6
5	Italiya	57,39	49,94	11.6
6	Turkiya	55,16	50,45	4.6
7	Germaniya	34,80	28,46	11.2
8	Buyuk Britaniya	37,22	30,74	6.0
9	RF	78.0		20.0
10	Malayziya	20,14	10,07	30.7
11	O'zbekiston	6,63	5,23	2.7

Qayd etish joizki, “Fransiyada turizmni boshqarishni tashkil etish shtat, viloyatlar, departamentlar, kommunalar”¹⁷ va xususiy sektorni birlashtiruvchi tizimdir. Taraqqiyot va transport vazirligi turizm sohasiga davlat darajasida javob beradi.

AQSHda turizm siyosati AQSH Federal Savdo Departamenti tarkibidagi eng yirik Sayohat va Turizm Assosiatseyasi tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Har bir shtat turizmni rivojlantirish va targ'ib qilish uchun mas'ul bo'lgan o'z xizmatiga ega.

XXRda turizmni rivojlantirish markazlashgan. Turizm sohasidagi boshqaruvni bevosita XXR Davlat kengashiga bo'ysunuvchi XXR Davlat turizm boshqarmasi amalga oshiradi. XXR Davlat turizm idorasida 14 ta xorijiy vakolatxonalar mavjud bo'lib, ularning asosiy vazifasi Xitoy turizmini ommalashtirish va chet ellik sayyohlarni jalb qilishdir¹⁸.

Ispaniyada turizm sohasidagi asosiy muvofiqlashtiruvchi bo'g'in Iqtisodiyot vazirligiga bo'ysunuvchi Savdo, turizm va kichik biznes davlat kotibiyati hisoblanadi. Shuningdek, vazirlikka bo'ysunadigan tashkilotlar sirasiga Turizm markaziy boshqarmasi, “Paradores” mehmonxonalar tarmog'i va Ispaniyaning “Turespaca” turizm instituti kiradi¹⁹. Xizmatlarni sertifikatlashtirish, lisenziyalash, turizm industriyasi strategiyasini ishlab chiqish kabi muhim vazifalar mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari hisoblanadi. “Turespaca” Ispaniya

¹⁶ <https://www.unwto.org/tourism-data/global-and-regional-tourism-performance>

¹⁷ <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D0%BC%D0%BC%D1%83%D0%BD%D1%8B%D0%A4%D1%80%D0%B0%D0%BD%D1%86%D0%B8%D0%B8>

¹⁸ Сайт РОСТУРИЗМ. [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.russiatourism.ru/> 28.06.2024-у.

¹⁹ Сайт Ассоциации Туроператоров России. [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.atorus.ru/touoffice> 28.06.2024 у.

turizm instituti chet ellik sayyohlarni jalb qilish va ispan kurortlarini chet elda targ'ib qilish uchun mas'ul hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, barqaror turizm industriyasini rivojlantirmoqchi bo'lgan yo'nalishlar uchun juda muhimdir: madaniy va tarixiy meros, oziq-ovqat va ichimliklar, turar joy va xizmat ko'rsatish sifati. Shunday qilib, ular sayyohlar uchun jozibadorligini oshirishi va o'z jamoalari uchun katta iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.

“Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, AQSh, Yaponiya kabi davlatlarni “yuboruvchi” bozorlariga misol qilib keltirish mumkin. Aksincha, yaratilgan qulay sharoitlar natijasida mamlakat shu qadar katta hajmdagi turistik xizmatlarni taklif qilishi mumkinki, u nafaqat o'z fuqarolari, balki chet ellik mehmonlarning ham talabini qondira oladi. Bunda gap taklifi ustun bo'lgan bozor – reseptiv (inglizchada receptive) yoki “qabul qiluvchi” bozor haqida ketmoqda. Ispaniya, Avstriya, Italiya, Gresiya, Meksika”²⁰ ni asosiy qabul qiluvchi bozorlar deb hisoblash mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Tukkel I.L. Upravleniye innovatsionnyimi proyektami: uchebnik [Tekst] / I.L. Tukkel, A.V. Surina, N.B. Kultin, pod red. I.L. Tukkeya. – SPb.: BXV-Peterburg, 2011. – 416 s.
2. Tuxliuyev I.S., Hautbouyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 332 b.;
3. UNSTAD surveye on the internationalization of R&D. Survey results and prospects on the internationalization of R&D. United Nations. UNSTAD. New York Gyenyeva, 2010.
4. Upravleniye i organizatsiya v sfere uslug: teoriya i praktika: Service Management and Operation – 2-ye mejdunarod. izd. (per. s angl pod nauch. red. V.V. Kulibanovoy) / K.X. Xaksever, B.R. Render, R.S. Rassel, R.G. Merdik. – SPb i dr.: PITER, PITER bux, 2002. – 751 s.
5. Upravleniye innovatsiyami: 17-modulnaya programma dlya menedjеров. Upravleniye razvitiyem organizatsii. Modul 7 [Tekst] / Gunin V. I. [i dr.]. – Moskva: INFRA-M, 1999. – 328 s.
6. Fatxutdinov R.A. Innovatsionnyy menedjment. 6-ye izd., ispr. i dop. [Tekst] / R.A. Fatxutdinov. – SPb.: 2011. – 448 s.

²⁰Опыт Испании на мировом рынке туристических услуг. <http://elibrary.ru/item.asp?id=26336097>